



## ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

### ВЕСТНИК НУУз

### АСТА NUUZ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ  
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ  
1997  
ЙИЛДАН  
ЧИҚА  
БОШЛАГАН**

**2021  
1/4**

**Ижтимоий-  
гуманитар  
фанлар  
туркуми**

Бош муҳаррир:

**И.У. МАДЖИДОВ** – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

**Р.Х. ШИРИНОВА** – ф.ф.д., профессор

Таҳрир хайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсунова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Х. – т.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Тўхтаев Х.П. – ф.ф.н., доц.

Болтабоев Х. – фил.ф.д., проф.

Раҳмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сиддиқова И.А. – фил.ф.д., проф.

Ширинова Р.Х. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

**ТОШКЕНТ – 2021**



**Dildora TO'RAYEVA,**

*A. Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
"Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika" kafedrasida o'qituvchisi  
dildoratorayeva9@gmail.com*

### SHAXSIY YOZISHMALARDA LINGVISTIK EKSPERTIZA TAHLILI

Аннотация

Maqolada shaxsiy yozishma tushunchasi, turlari va globallashuv davridagi variantlari xususida mulohazalar olib borilgan. Yozma matnlarning tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilishi, tasnifi va og'zaki nutqdan farqli jihatlari ilmiy asoslangan. Shuningdek, shaxsiy yozishmalarning stilistik xususiyatlari va ularning lingvistik ekspertizadagi amaliy ahamiyati haqida bayon etilgan. Yozma matnlarda lingvistik ekspertiza tahlilini olib borish tamoyillari, usullari va uning yuristlingvistikadagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsiy yozishmalar, epistolar matn, epistolar matn turlari, shaxsiy yozishma tili, matn tasnifi, stilistika, nutq uslublari, lingvistik ekspertiza, lingvistik ekspertiza usullari

### ANALYSIS OF LINGUISTIC EXPERTISE IN PERSONAL CORRESPONDENCE

Annotation

The article provides insights into the concept, types and variants of epistolary text in the globular era. The study of written texts by the researcher scientists, the classification and differences of oral speech are scientifically based. It also describes the stylistic features of personal correspondence and their practical significance in linguistic expertise. In written texts, an idea was made about the principles, methods of conducting linguistic expert analysis and its importance in jurisprudence.

**Key words:** personal correspondence, epistles text, the language of the personal correspondence, stylistics, epistolary text, text classification, stylistics, speech styles, linguistic expertise, linguistic expertise methods.

### АНАЛИЗ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПО ЛИЧНОЙ ПЕРЕПИСКЕ

Аннотация

В статье рассмотрены понятие, виды и варианты личной переписки в эпоху глобализации. Научно обоснованы аспекты изучения, классификации и отличия письменных текстов от устной речи учеными-исследователями. Также изложены стилистические особенности личной переписки и их практическое значение в лингвистической экспертизе. Изложены принципы, методы проведения лингвистического экспертного анализа письменных текстов и его значение в юриспруденции.

**Ключевые слова:** личная переписка, эпистолярный текст, виды эпистолярного текста, язык личной переписки, классификация текста, стилеведение, стили речи, лингвистическая экспертиза, методы лингвистической экспертизы

**Kirish.** Yangi asrda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan globallashuv jarayoni dunyo miqyosida tilshunoslikning ham, til ta'limining ham zimmasiga yangidan yangi vazifalarni qo'ymoqda. Davr tildan amaliy foydalanish samaradorligini fanning ham, ta'limning ham asosiy vazifasiga aylantirib qo'ydi. Natijada dunyo fanida tilning ichki qurilishini tavsiflaydigan quruq nazariyabozlikdan til va shaxs musharakligi masalasi bilan shug'ullanadigan amaliy yo'nalishlarga o'tish to'liqini kuch olmoqda[1]. Shu nuqtayi nazardan turli fanlar kesishuvi natijasida tilshunoslikning yangi tarmoqlari yuzaga keldiki, uning pirovard masalasida inson omili turadi. Xoh psixologik, xoh huquq , xoh sotsial soha bo'lsinki, bu boradagi ilmiy tadqiqot natijalari insoniyat hayotini yaxshilashga qaratilgan. Pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, yuristlingvistika, sud lingvistikasi kabi antroposentrizm ustuvorlik qiladigan qator tilshunoslik tarmoqlari yuzaga keldiki, bu , albatta, jamiyat mafaati uchun xizmat qiladi[2].

So'nggi yillarda tilshunoslik fanining amaliy ahamiyati tobora ortib jamiyatning rivojlanishi natijasida "til va huquq" bilan bog'liq muammolarni hal etishda tilshunoslik va huquqshunoslik fanlarining ilmiy-nazariy yechimlariga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda va qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda[3,4,5]. Jumladan, davlat faoliyatida til bilan bog'liq munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, yuridik terminlarni qonunchilikda ishlatish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima masalalari, yangi paydo bo'layotgan tushunchalarni ifodalash, turli xalqaro munosabatlarda tilning o'ri kabi masalalar, ayniqsa, dolzarblik kasb etmoqda.

Nazariy fanlarda so'nggi paytlarda ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tilshunoslikda so'nggi yillarda matnning lingvistik va pragmatik jihatdan S. Gindin M. Makarov, I.Susov, Z.Turayeva, V.Yuganov; psixolingvistika nuqtai nazaridan V. Belyanin, N.Jinkin, A.Zalevskaia, I.Zimnyaya, A. Novikov, L.Saxarniy, Y.Sorokin va boshqalar o'rganishgan. Bundan tashqari yozma matnning turli jihatlari ham ko'plab olimlar tomonidan o'rganildi. Epistolar matnning lingvopragmatik nuqtai-nazaridan A.V.Belova[6], lingvostilistik jihatdan P.E. Buxarkin[7], N.I. Belunova[8], N. Bettuziya,[9] L.V. Nijnikova[10] va ijtimoiy - lingvistik asosi jihatidan Z.M. Danker bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borganlar[11].

O'zbek tilshunosligida ham "matn" turli aspektlarda o'rganildi: gazeta matnlari mazmuniy perstepsiyasining psixolingvistik tadqiqi yuzasidan I.Azimova[12], matnning antroposentrik tadqiqi yuzasidan D.Xudoyberganova[13] matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar yuzasidan S.O'.Boymirzayeva[14], matnning pragmatik talqini yuzasidan M.Hakimov ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar[15]. Adabiy me'yordan cheklangan matnning umumiy tipologiyasi hali-hanuz o'zbek tilida to'la-to'kis o'rganilmagan. Shu bilan birga, matn nutq faoliyati mahsuli va axborot tashuvchisi sifatida nutq faoliyati va axborotga xos xususiyatlarga ega ekanligini bilan ahamiyatli. Matn orqali fikrlar (ma'lumotlar), g'oyalar almashinuvi amalga oshiriladi; aloqa akti sifatida matnga uni ishlab chiqaradigan, qabul qiladigan va sharhlaydigan kommunikatorlar bilan bevosita aloqasi bor. Shunday qilib, matn axborot, ijodiy va pragmatik

jihatlarning birligi sifatida qaralishi mumkin. M. Brandesning fikriga ko'ra, yozma nutqning o'ziga xos xususiyati shundaki, u suhbatdoshning yo'qligida qurilgan og'zaki muloqotning vositachilik shaklidir, shuning uchun u imkon qadar kengaytiriladi, uning sintaktik qurilishi maksimal darajaga yetadi. Zero, yozma matn sintaktik, semantik va pragmatik jihatdan shakllangan bo'lib, u so'zlovchining nutqiy vaziyatdagi psixologik holatini, nutq maqsadi, dunyoqarashi, munosabatini ro'yi-rost namoyon qiladi. Bunga olim Galperin funktsional jihatdan yondashib, u "yozma matn"ni oldindan belgilangan maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan xabar deydi. Ammo uning fikriga ko'ra, har qanday nutq kabi yozma matn ham har doim pragmatik tabiatga ega. Olimning fikriga ko'ra, og'zaki nutqda maqsadning namoyon bo'lishi dialogik ko'rinishda aks etsa, yozma nutq nisbatan murakkab, ya'ni unda, ko'pincha, monologik nutq ustunlik qiladi[16].

Dialogik nutq replikatsiya almashinuvini o'z ichiga oladi. U alohida replikalarda tushunilmaydi, balki yo to'liq yoki kamida juftlikda berilganda yetarli darajada tushunilishi mumkin. M. Lvovning ma'lumotiga ko'ra, "Dialog tuzilishi-replikatsiya almashinuvini va shu orqali nutq yuzaga keladi", yoki V.Y.Xolodyakning ma'lumotiga ko'ra "Agar monolog sifatida xatni ko'rib chiqsak, avval xat yozuvchini nutqi monolog tarzida aks etsa, keyin qabul qiluvchining mavjudligi va lingvistik xususiyatlarning dialogik-monologik xarakterga ega bo'lishini kuzatishimiz mumkin". Xulosa sifatida olim buni o'ziga xos yozma va og'zaki xususiyatlarni birlashtirgan distant "mono-muloqot" nutq deb ataydi.

Dialog muloqotda juftlikda to'planishi mumkin bo'lgan replikatsiya misollari: a) savol -javob; b) birinchi replikatsiya yoki tushuntirishni qo'shish; v) rozilik yoki e'tiroz; D) nutq axloqi shakllari, masalan, salomlashish yoki javob berish tarzida amalga oshadi. Shu bilan birga, dialog nutqning ayrim xususiyatlari epistolar matnga ham aloqador bo'lishi mumkin. Masalan, dialogik muloqotning savol-javob tarzidagi ayrim xususiyatlari. Birinchidan, epistolar aloqa fikr-mulohazalarni o'z ichiga olar ekan, albatta, qabul qiluvchi xatga javob beradi. Ikkinchidan, xatda suhbatning vaqti va maydoni alohida qabul qiluvchi bilan yo'llovchi o'rtasidagi yozishmalar doirasida bo'lishi mumkin. Bu bilvosita zanjirda alohida "replikatsiya" sifatida namoyon bo'lgandek. Chunki o'sha vaqtga va nutqiy maqsadga ko'ra javob xati yuzaga keladi. Bu dialog so'zlashuv nutqining shaxsiy yozishmalar bilan aloqador tomonlari bo'lsa, ularning o'ziga yarasha farqli jihatlari ham mavjud. Bilamizki, mustaqillik va semantik to'liqlikka ega bo'lmagan replikalar dialog matnga xos bo'lgan narsa. Ammo, shaxsiy yozishmalarda o'ylangan axborot qayta ishlangan tarzda namoyon bo'ladi va shu bilan birga, mukammal semantik maydonni hosil qiladi. Nisbatan yozma matn so'zlovchining nutqiy maqsadini bekami-ko'st yoritadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yozma matnlarni lingvistik ekspertiza qilishning o'ziga xos tamoyillari mavjud:

1. Bu bayonot haqiqiy yoki yolg'onmi?

2. Matnda axloqiy bo'lmagan xatti-harakatlar haqida ma'lumot bormi?

3. Matnda amaldagi qonunchilikning buzilishi va yoki xoslik haqida ma'lumot mavjudmi?[17]

Avvalo, shu parametrlar aniqlab olingandan so'ng matnning mazmuni, tili ya'ni uslubi haqida fikr yuritishimiz mumkin. Shunga muvofiq, tilshunos olim O. Sedova epistolar uslubini shaxsni o'z-o'zini anglashga yordam beradigan aloqa turi sifatida tasvirlaydi va uning o'ziga xos parametrlari mavjudligini aytadi: jo'natuvchining turi, qabul qiluvchining turi, aloqa turi, matn mavzusi, qabul qiluvchiga munosabat, funktsiya. Olima ularning hammasi butunlikda epistolar uslubni shakllantirishi haqida xulosa bergan.

Tilshunoslar V. Vinogradov, D. Rozental esa yozma nutqni quyidagicha uslublarga ajratishgan: aloqa, xabar va

ta'sir. Shunday qilib, aloqa funktsiyasi suhbat uslubi, xabar funktsiyasini -ilmiy va rasmiy uslublar, ta'sir qilish funktsiyasi-jurnalistik va badiiy uslublar aloqadorligida yuzaga keladi. Shaxsiy yozishmalar ko'pfunksionallik xususiyatiga ega bo'lib, bunga nisbatan L. Kezba aloqa funktsiyasi (aloqa) asosida funktsional uslublar tizimi sifatida epistolar uslubini ta'kidlash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Chunki shaxsiy yozishmalarda ham lingvistik, ham ekstralingvistik omillar birdek namoyon bo'ladi. Bu esa axborot va ta'sir kuchiga ega bo'lgan butunlikni yuzaga keltiradi. Olima L. Nijnikovaning tadqiqotida shaxsiy xatlar suhbat uslubiga kiritish maqsadga muvofiq emasligi aytib o'tilgan. Ya'ni shaxsiy yozishmalarda barcha uslublarning aralashuvini kuzatamiz. Tadqiqotchining ma'lumotiga ko'ra, "ish xatlarini ko'rib chiqish rasmiy-idoraviy uslubining janri, jurnalistik (gazeta tahriridagi xatlar)- publitsistik uslubning janri sifatida, obrazli va ta'sir kuchiga ega yozishmalar-badiiy adabiyotning janri sifatida, olimlarning yozishmalari-professional sifatida yo'naltirilgan xat, ya'ni ilmiy uslubning janri sifatida, ijtimoiy munosabatlarga oid maktablar - so'zlashuv uslubining janri sifatida o'rganilishi lozim».

Yuqoridagi yondashuvlardan tashqari, N. Babenko, N. Belunova, K. Dolinin, A. Shveytser "janr" tushunchasini aniqlashda matn turi matnning janri deb hisoblaydilar.

N. Babenko matnning janrlari nazariyasini, avvalo, pragmatik tamoyillarga bog'laydi. U quyidagi belgilarni sanab o'tadi: vaziyatning tabiati va kommunikativ niyat. Matnning o'ziga xos shakllari ko'ra, muayyan niyat muayyan vaziyat sharoitida amalga oshirilishi kerak. Uning fikricha, axborot vazifalari, funktsional parametrlarga qo'shimcha ravishda e'tiqodlar, ta'sirlar kabi belgilar matn janrlarini tanlashda muhim hisoblanadi. Ya'ni:

1) qabul qiluvchi bilan bog'liq belgilar (masalan, adresantning mavjudligi yoki yo'qligi);

2) adresat bilan bog'liq belgilar (masalan, murojaat uning nomidan yoki guruh nomidan);

3) xabarlarining aloqa xususiyatiga ko'ra ifodalangan belgilari (mavhum yoki aniqlik, emotsionallik- nohissiylik);

4) axborotni uzatish bilan bog'liq belgilar (yozma yoki og'zaki, monologik yoki dialogik). Undan keyingi o'rinda matn hajmi, aniqlik yoki noaniqlik, xayoliy yoki reallik darajasi kabi kommunikativ jarayon bilan bog'liq holatlar muhim ahamiyatga ega.

N. Belunova epistolar matnlarining eng batafsil tasnifini beradi, ya'ni:

1) rasmiy-biznes xatlari (huquqiy, tijorat xatlar va h. k.);

2) professional yo'naltirilgan xatlar (olimlarning yozishmalari);

3) publitsistik( gazetaga mo'ljallangan xat);

4) badiiy xatlar (roman va boshqa badiiy adabiyot janrlariga taalluqli xatlar);

5) xususiy norasmiy xatlar (nashr qilish uchun mo'ljallanmagan). U nisbatan epistolar matnga xos bo'lgan olimlarning xulosalarini umimlashtiradi.

Tilshunos N.Kovaleva XIX asrning rus tilidagi shaxsiy yozishmalarga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi mavjud bo'lib, muallif epistolar matnini janrshunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi va "janr" deb talqin etiladi. M.Baxtin ham shaxsiy yozishmalarni nutq janriga kiritish g'oyasini ilgari surgan. Darhaqiqat, nutq janri ham ma'lum bir jarayonda sodir bo'ladi, nutq faoliyati ham yo dialog, yoki monolog kabi jarayonlarning mahsulidir.

Matnning shakli va tuzilishidan tashqari tadqiqotchi B.Najua matnlarning umumiy tasnifiga asoslanib epistolar matnlarining quyidagi subtillarini ta'kidlaydi:

1) informatsion xatlar;

2) undovchi xatlari;

3) aloqa o'rnatish uchun olib borilgan xatlar;

Maktub, har qanday matn kabi nutq muloqotining bir turi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotchining fikriga ko'ra, avvalo, matnlarni mazmuniy jihatdan farqlash va undan so'ng uning uslubi va strukturasi e'tibor qaratish lozimligini aytadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan tasniflar shaxsiy yozishmalarning tili va xususiyatini aniqlashga yordam beradi. Zero, shaxsiy yozishma kim tomonidan va qanday dunyoqarashga ega insonga mansubligi, nutq maqsadi va vaziyatini uning uslubiga qarab ham aniqlash mumkin. Shaxsiy yozishmalarning stilistik xususiyatlari barcha lingvistik belgilardan ko'ra ustun turadi. Masalan, leksik, fonetik xususiyatlari ham muhim, avvalo, yozishmaning mavzusi, tuzilishi, uslubi aniqlanib, keyin masala xususiy

jihatdan o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zotan, bu orqali biz, dastlab, xatning muallifi qay toifadagi inson ekanligini aniqlab olamiz. Bu borada M. Baxtin "Nutq janrlari muammosi" ishida quyidagilarni belgilaydi: "Har bir alohida bayonot barqaror nutq janrlariga ega". Tadqiqotchi nutq uslublarini turlarga ajratadi: "asosiy (oddiy) nutq janrlari" va "ikkinchi darajali (murakkab) nutq janrlari", "to'g'ridan-to'g'ri nutq sharoitida shakllangan aloqa janrlar". Nutq janrini aniqlash orqali maktub muallif tomonidan yozilgan yoki yozdirilganligi haqidagi ma'lumotlarni yoritib berolmaymiz. Chunki unda aynan so'zlovchining portreti gavdalanadi. Demak, shaxsiy yozishmaning uslubini, shakli va tuzilishini aniqlash lingvistik ekspertizning debochasi, ya'ni asosiy kalit vazifasini bajaradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B. Amaliy filologiya istiqbollari va uning "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun ijrosiga uyg'unligi imkoniyatlar eshigining "kalit"i. Ma'rifat gazetasi. 2015yil 10-oktabr.
2. Abdurakhmonova Nilufar, Aripov Mirsaid, Urazboyev Gayrat CLASS: prospective in dynamic, competitive, economic world, - p. 104-108. // ERASMUS+ IN UZBEKISTAN proceedings [http://www.erasmusplus.uz/images/shared/file/NEO%20publication%202018%20\\_%20updated\\_11\\_12\\_2018\\_WEB\\_NEW%20NEW%20](http://www.erasmusplus.uz/images/shared/file/NEO%20publication%202018%20_%20updated_11_12_2018_WEB_NEW%20NEW%20)
3. Saidova F. O'zbek tilini dunyo miqyosida keng targ'ib qilish bo'yicha hamkorlik istiqbollari. xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.- Toshkent., 2020.;
4. Musulmonova K. Linguistik ekzam and it's meaning. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com//ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 11, November 2020;>
5. Turayeva D. Linguistic expertise as a branch of legal linguistics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com//ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 12, December 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13>
6. Белова А. В. Лингвопрагматическая характеристика обратимой эпистолярной коммуникации. автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 2005.
7. Бухаркин П.Е. Письма русских писателей XVIII в. и развитие прозы (1740-е-1780-е гг.). С. 7;
8. Белонова Н.И. Дружеские письма творческой интеллигенции. С. 45;
9. Бегтузия Н. Особенности текстов эпистолярного жанра. С. 81.
10. Нижникова Л.В. Письмо как тип текста: автореф. дисс. ... канд. филол. наук / Одес. гос. ун-т. Одесса, 1991.
11. Данкер З.М. Функционально-семантическая организация текста частного письма (ситуация установления контакта): автореф. дисс. ... канд. филол. наук / СПбГУ. СПб., 1992.
12. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2008. – 24 б.;
13. Худайберганова Д. С. Ўзбек тилида матннинг антропоцентриқ тадқиқи. Фил. фан. док... д и с с ... – Тошкент., 2014.
14. Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2010. – 320 б.
15. Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2001. – 283 б.;
16. Холодняк Е.В. Стилистика писем М.А. Максимовича: Дисс. ... канд. филол. наук. – Харьков, 2017. –с 15.
17. Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Кемерово, 2010

Хушвақова Н. Оилаларни мустақамлаш– фарзандларни миллий, маънавий ахлоқ асосида тарбиялашдири.....	178
Hazratkulov Sh. Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy siyosatning oʻrni va roli.....	182
Шарипова Г. Религиозная толерантность как гарант гуманизма в мире (на примере Малайзии).....	185
Shernazarov I., Salixova M. Kimyo oʻqituvchilarini xalqaro baholashdagi PISA tadqiqotiga tayyorlashda tabiiy savodxonligini oshirish metodikasi.....	188
Шоймардонов Т., Закирова Ф., Адашбоев Ш., Буриев Э., Гайсёнок В., Наумович О. Проектирование содержания курсов повышения квалификации педагогических кадров по направлению «цифровые технологии в образовании».....	192
Юлдашева Д. Талабаларнинг инглиз тилига асосланган мулоқот маданиятини ривожлантиришнинг online муҳити муҳим омили.....	196
Юлдашева Д. Теоретико-методологические основы современных исследований лингвометодических учений.....	200
Юсупова Ш. Оммавий онлайн очик курслар ва унинг турлари.....	203
Yusufaliyeva G., Utanbayeva D., Bektemirova Z. Boshlangʻich sinflarda oʻtiladigan darslarni integrativ yondashuv asosida tashkil etish faoliyatini rejalashtirish va qoʻllash usullari orqali oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga oʻrgatish.....	209
Yaxiyaxopova M. Taʼlim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning samaradorligi.....	212

#### Филология

Abjalova M., Erkinov F. Elektron lugʻat va kiberleksikografiya.....	216
Allanazarova S. Zamonaviy kompyuter tilshunosligi va sentiment tahlili.....	220
Amonova D. Translation and adaptation in literature.....	223
Гулямова Ш. Ахборот-кидирув тизимида семантик анализ ва синтез масаласи.....	227
Донакулова Д. Типология героев малой прозы Татьяны Толстой.....	231
Ziyatova N. Oʻzbek mentalitetida qadriyatlar va ularning lingvokulturologik talqini (Oʻtkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asari asosida ЮЮ.....	235
Israilova D., Shorasulova A. Structural-semantic features of paroemias: verbalization of a constant human appearance in the russian and english languages.....	238
Имянинова Ш., Казакова Л. Немисча-русча ҳарбий терминлар лугатларининг яратилиши тарихидан.....	241
Назарова С. Ўзбек ва инглиз тилларида ирригация ва мелиорация терминларининг шаклланишига ретроспектив назар.....	245
Номозова М. Она тили дarslarida oʻquvchilarning nutq uslublarini farqlash koʻnikmasini aniqlashga oid tajriba-sinov ishlari.....	249
Оманова М. Эркин Самандарнинг “Тангри кудуги” тарихий романида эпик қахрамон тасвири.....	253
Рахмонова З. Фольклор материалларига ижодий индивидуал ёндашув (профессор Баходир Саримсоков илмий мероси мисолида) .....	256
Sobirova D., Usarov I. Structural and functional characteristics of antithesis (on material of english and russian languages).....	259
Saydamatov I. Ingliz va oʻzbek tillarida “quvonch” va “qaygʻu” leksemalarini ifoda etuvchi frazeologik birliklarining lingvokulturologik tahlili .....	261
Собирова Р. Уй-рўзгор буюмлари лексикасининг бойиш манбалари.....	265
Toʻraeva D. Shaxsiy yozishmalarda lingvistik ekspertiza tahlili.....	268
Турамуратова И. Метафора как способ выражения антропоморфизма в поэзии Федерико Гарсиа Лорки.....	271
Хўжамуродова О. Ўзбек тилининг гулчилик лексикасида аффиксация усули билан сўз ясалиши.....	274
Eshtoʻhtarova B. Ingliz va ўзбек тилларида “head/бош” компонентли фразеологик birlikларнинг мавзувий гуруҳлари.....	277
Yoʻldoshova U. Teaching foreign languages in nonphylogenical esp classes based on cefr requirements.....	279